**XALQ DEPUTATLARI KOSON TUMANI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2024-yil 2-iyul VI-103-144-4-60-K/24 Koson tumani

**Tumanda ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 299-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika Aerogeodeziya markazi Xorazm hududlararo bo‘linmasi tomonidan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risidagi Nizomga asosan Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi shahar, shaharchalar hamda qishloqlar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2024-yil 13-iyundagi yig‘ilishining B-01-03/33-sonli bayoni o‘rganildi.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, O‘zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Koson tuman Kengashi

**Q A R O R Q I L D I:**

**1.** Ma’muriy-hududiy tuzilish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 13-iyundagi B-01-03/33-sonli yig‘ilish bayoni hamda xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Shahar, shaharcha hamda qishloqlar chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risidagi ma’lumot **1-ilovaga**, ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi **2-ilovaga** muvofiq ma’qullansin.

**3.** Mazkur qarorni matbuotda yoritish “Koson” gazetasi (O.Omonov) zimmasiga hamda hokimlikning internetdagi veb-saytida joriy qilish tuman hokimiligining matbuot xizmati (D.Nabiyev) zimmasiga yuklatilsin.

**4.** Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashidan so‘ralsin.

**5.** Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Ochilov, nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining sanoat,

transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O‘.G‘ofurov zimmasiga yuklatilsin

Kengash raisi  BOYKARAYEV ASROL RUZIYEVICH

Xalq deputatlari Koson tumani
Kengashining
2024-yil 2-iyuldagi
VI-103-144-4-60-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Koson tumani shahar va shaharcha hamda qishloqlarining chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risida**

**MA'LUMOT**

| № | Shahar, shaharcha va qilshloqlar nomi | Chegara uzunligi (*metr*) | Yer maydoni (*gektar*) |
|---|---|---|---|
| 1 | Alachabob qishlog'i | 163 380 | 61 054,84 |
| 2 | Do'stlik qishlog'i | 95 597 | 9 209,72 |
| 3 | Gulbog' qishlog'i | 99 992 | 25 347,82 |
| 4 | Gulobod qishlog'i | 83 898 | 16 371,46 |
| 5 | Istiqlol qishlog'i | 40 813 | 3 175,27 |
| 6 | Koson qishlog'i | 76 064 | 11 672,03 |
| 7 | Qo'ng'irtog' qishlog'i | 61 297 | 10 135,58 |
| 8 | Tinchlik qishlog'i | 105 698 | 35 949,48 |
| 9 | Yuksalish qishlog'i | 56 784 | 5 784,84 |
| 10 | Boyg'undi shaharchasi | 8 950 | 289,94 |
| 11 | Boyterak shaharchasi | 9 765 | 417,97 |
| 12 | Esaboy shaharchasi | 5 855 | 99,38 |
| 13 | Guvalak shaharchasi | 12 144 | 552,52 |
| 14 | Istiqlol shaharchasi | 4 807 | 128,80 |
| 15 | Mudin shaharchasi | 14 518 | 364,20 |
| 16 | Obod shaharchasi | 6 225 | 179,58 |
| 17 | Oqtepa shaharchasi | 6 566 | 186,61 |
| 18 | Po'loti shaharchasi | 22 299 | 906,29 |
| 19 | Pudina shaharchasi | 9 346 | 256,39 |
| 20 | Quyi Obron shaharchasi | 5 409 | 156,49 |
| 21 | Rahimso'fi shaharchasi | 12 769 | 646,14 |
| 22 | Surxon shaharchasi | 8 719 | 337,69 |
| 23 | To'lg'a shaharchasi | 9 396 | 290,67 |
| 24 | Koson shahri | 31 969 | 3 290,83 |
| | **Jami** | **952 259** | **186 804,54** |

Xalq deputatlari Koson tumani
Kengashining
2024-yil 2-iyuldagi
VI-103-144-4-60-K/24 -son qaroriga
2-ilova

